UO‘K 631.1

O‘ZBEKISTONDA PAXTACHILIKNI TARAQQIY ETTIRISHDA SHIRKAT VA DEHQON (FERMER) XO‘JALIKLARINING O‘RNI

(Andijon viloyati misolida)

A.A. Alisherov

Maqolada paxtachilik tarmog‘idagi shirkat va dehqon (fermer) xo‘jaliklari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar arxiv manbalari asosida Andijon viloyati misolida o‘rganilgan. Jamoa xo‘jaliklarini shirkat xo‘jaliklariga aylantirish jarayoni mulkiy pay va oila pudratiga tayanuvchi yangi mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosi ekanligi dalillangan. Tahlillar natijasida chiqarilgan xulosalar paxtachilik subyektlari faoliyatini samarali tashkil etishda nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *paxtachilik, fermer xo‘jaligi, shirkat, islohot, yer ijarasi, hosildorlik, pudrat.*

В статье на основе архивных источников проанализированы нормативно-правовые основы деятельности ширкатных и дехканских (фермерских) хозяйств в хлопковой отрасли Андижанской области. Доказано, что преобразование бывших колхозов в ширкатные хозяйства стало основой формирования нового класса собственников, опирающихся на имущественный пай и семейный подряд. Представленные научно-практические выводы имеют значение для эффективной организации деятельности субъектов хлопководства.

Ключевые слова: *хлопководство, фермерское хозяйство, ширкат, аграрная реформа, аренда земли, урожайность, семейный подряд.*

KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotida paxtachilik qishloq xo‘jaligining strategik muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Xususan, Andijon viloyatida paxtachilik sohasida o‘ziga xos tajriba maktabi va boy an’analar shakllangan. Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq aholisi bandligini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida agrar sohada tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, paxta ekin maydonlari optimallashtirilib, yerlarning bir qismi g‘alla, meva va sabzavot ekinlari uchun ajratildi. Natijada so‘nggi yillarda paxta maydonlari qariyb 15–16% ga qisqardi. Biroq maydonlarning kamayishi paxtachilikka bo‘lgan e’tibor susayganini anglatmaydi. Aksincha, zamonaviy ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, almashlab ekish tizimini takomillashtirish hamda mehnat samaradorligini oshirish orqali hosildorlikni yuksaltirish ustuvor vazifa etib belgilangan. “Bugungi kunda dunyoda paxta yetishtirish bo‘yicha Xitoy yiliga – 17 mln., AQSH – 11 mln., Hindiston – uchinchi o‘rinda bo‘lib 7 mln., Pokiston – 6 mln. va O‘zbekiston manbalarda qayd qilinishicha 3 mln. tonnadan ortiq paxta ishlab chiqaradi” [1. B. 10]. Mahalliy ko‘rsatkichlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Andijon viloyati paxtakorlari belgilangan 240800 tonnalik rejani muvaffaqiyatli ado etib, davlat xirmoniga 238386 tonna sifatli xomashyo yetkazib berdilar. Bu natijalar sohada olib borilayotgan klaster tizimi va fermerlik harakatining samarasidir.

Tarixiy manbalar Farg‘ona vodiysi aholisi qadim zamonlardan buyon paxtachilik bilan shug‘ullanib kelganidan dalolat beradi. Paxtachilik nafaqat xo‘jalik faoliyati, balki aholining turmush tarzi va ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylangan. Vodiy ahli to‘plagan boy tajriba Markaziy Osiyo mintaqasida soha rivoji uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

MATERIAL VA USULLAR

Andijon viloyati davlat arxivida saqlanayotgan va ilmiy izlanishlarda iste’molga kiritilmagan manba – paxtachilik sohasidagi shirkat, dehqon (fermer) xo‘jaliklari haqidagi nizom tadqiqot materiali bo‘lib xizmat qildi.

Qo‘yilgan muammoni o‘rganish jarayonida tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda, qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Davlatimiz rahbari 2025-yil 10-dekabrda qishloq xo‘jaligi xodimlari bilan muloqot qildi. Unda quyidagi ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tdi: “Joriy yilda xalqimizning 3,5 milliondan ziyod vakili mehnat qilayotgan qishloq xo‘jaligida katta marralarga erishildi. Paxtachilikda mirishkor dehqon va fermerlarimiz tomonidan 875 ming gektar yerda 4 million tonnaga yaqin xirmon yaratildi. Ilk bor paxtada o‘rtacha hosildorlik 46 sentnerga yetdi” [2. B. 1]. Bu oxirgi besh yillikda paxta yetishtirish salmog‘ini anchagina oshganligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan strategik yo‘nalishlarda ekin maydonlarini maqbullashtirish bilan bir qatorda, hosildorlikni oshirish orqali yalpi mahsulot hajmini saqlab qolish va ko‘paytirish ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilgan. Xususan, mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish va belgilangan natijalarga erishish uchun paxta hosildorligini kamida 15–16 foizga oshirish zarur hisoblanadi. Bunday natijaga erishish esa faqat ekstensiv choralar bilan cheklanib qolmasdan, sohada chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirishni, innovatsion yondashuvlar hamda tomchilatib sug‘orish, raqamli dehqonchilik kabi zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etishni talab qiladi. Hozirgi sharoitda paxtaga nafaqat an’anaviy siyosiy ekin, balki yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi strategik xomashyo sifatida yondashish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “...hosildorligi 15 sentnerdan past bo‘lgan, fermerga faqat zarar keltiradigan yerlarga paxta ekishdan mutlaqo voz kechildi. Endilikda bunday maydonlarda yuqori daromadli va eksportbop ekinlar yetishtirilmoqda” [3. B. 1], – deb ta’kidlanganligi bejiz emas.

2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi qishloq xo‘jaligi sohasi vakillari zimmasiga ham muhim vazifalar va yuksak mas’uliyat yuklamoqda. Shu nuqtayi nazardan, arxiv manbalari asosida tayyorlangan “Oq oltin vodiysi Andijonda fermerlik harakati” nomli tadqiqotimiz keng jamoatchilik e’tiboriga havola etilmoqda. Mazkur tadqiqotda fermerlik harakatining shakllanish va rivojlanish jarayonlari, sohaning huquqiy asoslari, shuningdek, paxtachilik tizimida shirkat hamda dehqon (fermer) xo‘jaliklari nizomlarining tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti ilmiy tahlil etilgan.

Prezidentimizning “Sirdaryo viloyati faollari yig‘ilishida qishloq xo‘jaligini isloh qilish va fermerlar daromadini oshirish masalasiga to‘xtalib, shunday ta’kidlagan edi: “Bo‘lsa-bo‘lmasa paxta ekaverish, uni arzon narxda xomashyo sifatida sotish – iqtisodiyotni tushunmaslikdir. Endi paxtani faqat rentabelligi yuqori bo‘lgan hududlarda ekamiz” [4. B. 1].

Haqiqatan ham, paxtaga “siyosiy ekin” maqomi berilgan davrlar tarixda qoldi. Istiqlol yillarida mazkur tarmoqning iqtisodiy samaradorligi, foyda va zararlari atroflicha tahlil qilinishi natijasida agrar soha faqat paxtachilik bilan cheklanmasligi haqidagi qarashlar mustahkamlandi. Islohotlarning yangi bosqichida hosildorligi past yer maydonlarida yuqori daromad keltiruvchi va eksportbop ekinlar yetishtirish amaliyoti keng joriy etilmoqda. Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi uch yil davomida paxta maydonlarining qariyb 215 ming gektarga qisqartirilishi sohani diversifikatsiya qilish yo‘lidagi muhim strategik qadam bo‘ldi. Bugungi kunda respublikamizning 30 dan ortiq tumanida, jumladan, Andijon viloyatining Asaka tumanida ham paxta yetishtirish to‘liq tugatilib, muqobil va yuqori daromadli ekinlar yetishtirishga ixtisoslashuv jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu esa agrar tarmoqda “strategik xomashyo” tamoyilidan “iqtisodiy samaradorlik” mezoniga o‘tilayotganini yaqqol namoyon etadi. Mazkur o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona va samarali foydalanish, bozor mexanizmlarini mustahkamlash hamda sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar jarayonida paxtachilik tarmog‘ini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida paxtachilik tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ushbu sohani isloh qilishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada paxtachilikda xo‘jalik yuritish va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy, moliyaviy hamda huquqiy shart-sharoitlari tubdan o‘zgardi. Butun respublika miqyosida bo‘lgani kabi Andijon viloyatida ham paxtachilikka asoslangan paxtachilik fermer xo‘jaliklari raqobat muhitida teng huquqli faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Jamoa xo‘jaligini shirkat xo‘jaliklariga o‘zgartirish mulkiy pay va oila pudratiga asoslangan bo‘lib, maqsad qishloqda mulkdorlar sinfini yaratish, ularning mulkiy huquqlarini qayta tiklash va himoya qilish, bozor iqtisodiyoti talab va usullariga javob beradigan xo‘jalik yuritish shaklini rivojlantirish maqsadlarini ko‘zlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 1991-yil 23-dekabrda qabul qilingan “Dehqon (fermer) xo‘jaliklari tashkil etish va ularga yer uchastkalarini ajratish tartibini tartibga solish to‘g‘risida”gi Vaqtinchalik Nizomiga asosan, Ulug‘nor tumani (sobiq Komsomolobod rayoni) hokimi S.Qodirovning

1992-yil 26-iyundagi 43-sonli qarori bilan Andijon nomli sovxoz tarkibida “Sabri-dil” dehqon (fermer) xo‘jaligi tashkil etildi. Mazkur qaror bilan xo‘jalikning Nizomi rasman tasdiqlanib, uning huquqiy maqomi belgilab berildi. Natijada xo‘jalik qonunchilik va amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldi. S.Mahammadjonov “Sabri-dil” dehqon (fermer) xo‘jaligi rahbari etib saylandi. Unga xo‘jalik nomidan “Komsomol” davlat xo‘jaligi bilan shartnomalar tuzish, moliyaviy-iqtisodiy masalalarni hal etish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish va xo‘jalik faoliyatini boshqarish bo‘yicha keng vakolatlar berildi. Shu tariqa, mazkur fermer xo‘jaligi tuman iqtisodiyotida mustaqil subyekt sifatida shakllanib, yer resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish hamda aholi bandligini ta’minlash yo‘lida faoliyat boshladi [5]. Umuman, mazkur jarayon qishloq xo‘jaligida davlatga qaram ma’muriy tizimdan bozor munosabatlari va xususiy mulkchilik tamoyillariga asoslangan xo‘jalik yuritish shakliga o‘tishning muhim bosqichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Bu esa agrar sohada iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirish, raqobat muhitini shakllantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, Andijon viloyatida paxtachilikka ixtisoslashgan shirkat, dehqon (fermer) xo‘jaliklari Nizomining arxiv manbalarida mavjudligi ularning faoliyati natijalarini tahlil qilish, qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish, ularning unumdorligini saqlash va oshirish masalalari o‘z vaqtida dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotimizning bozor munosabatlari shakliga o‘tish bosqichida jamoa xo‘jaligi xo‘jalik yuritishning bozor usuli va tamoyillariga har tomonlama mos emasligi ma’lum bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Hukumatning 1998-yil 15-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligini isloh qilishga oid qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) tuzish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-sonli qarori qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirishning muhim huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida:

- respublikasi bo‘yicha 1754 ta, jumladan, Andijon viloyatida 133 ta shirkat xo‘jaligi o‘z faoliyatini boshladi;

- shirkat xo‘jaliklarining asosiy maqsadi – mulkiy pay va oilaviy pudratiga asoslangan holda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining huquqlarini himoya qilish va bozor iqtisodiyotiga moslashishdan iborat edi [6. B. 85].

Bu shuni ko‘rsatadiki, mazkur islohotlar qishloq xo‘jaligida mulkchilik munosabatlarini o‘zgartirib, iqtisodiy mustaqillikni kuchaytirgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligi keyingi bosqichlarda fermer xo‘jaliklariga o‘tish jarayoni bilan yanada mustahkamlandi.

Yangi qonunchilikka muvofiq, shirkat xo‘jaliklariga faqat qishloq xo‘jaligi xomashyosini yetishtirish bilan cheklanib qolmasdan, uni qayta ishlash, xalq iste’moli mollari ishlab chiqarish, savdo-sotiq, qurilish hamda turli xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida ham mustaqil faoliyat olib borish huquqi berildi. Mazkur imkoniyatlar qishloq joylarda ko‘p tarmoqli xo‘jalik tizimini shakllantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qildi.

Qonunchilikka muvofiq, shirkat xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlari davlat mulki sifatida saqlanib, ularni xususiylashtirish yoki oldi-sotdi munosabatlari obyektiga aylantirishga yo‘l qo‘yilmagan. Biroq yerdan foydalanish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga muayyan iqtisodiy mustaqillik berildi hamda ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat imtiyozlari va rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etildi. Jumladan:

– vaqtincha foydalanilmayotgan bo‘sh yer maydonlarini ikkilamchi ijaraga berish imkoniyati yaratildi;

– oilaviy (jamoa) pudrati tizimi joriy qilinib, “tayanch pudrat” asosida pudratchiga bajariladigan ish hajmi va usullarini mustaqil belgilash, shuningdek, ishlab chiqarish vositalaridan erkin foydalanish huquqi berildi;

– buyurtmachi vazifasini bajaruvchi shirkat xo‘jaligi pudratchilarni paxta xomashyosi yetishtirish uchun zarur moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oldi. Bu esa dehqon va fermerlar uchun muayyan iqtisodiy kafolat vazifasini o‘tadi [7].

Mazkur tizim davlat mulkchiligi asoslarini saqlab qolgan holda, qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning nisbatan erkin shakllarini rivojlantirishga xizmat qildi. Biroq uning amaliy samaradorligi bozor munosabatlari va iqtisodiy mexanizmlarning qay darajada to‘liq joriy etilganiga bevosita bog‘liq edi.

Arxiv materiallari tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, 1990-yillarning oxirlarida dehqon va fermer xo‘jaliklari rahbarlarining kasbiy salohiyatini baholash maqsadida maxsus attestatsiya tizimi joriy etilgan. Mazkur tizim fermerlik faoliyatiga tasodifiy shaxslar emas, balki qishloq xo‘jaligi sohasini yaxshi biladigan, tashkiliy va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan edi. Bu esa fermer xo‘jaliklarini samarali boshqarish, yer va resurslardan oqilona foydalanish hamda tarmoqda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi.

Jumladan, Jalolquduq tumani hokimining (tuman hokimi M.Egamova) 1999-yil 31-martdagi “Yorqishloq” qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi)ning Nizomini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi 163-k sonli qarori, “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Yer kodeksi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari)ni tuzish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qaroriga muvofiq tuman hokimining 1998-yil 6-avgustdagi 263-k-son qarori asosida qabul qilingan. “Shuningdek, qarorni qabul qilishda “Yorqishloq” qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi)ning 1999-yil 29-martdagi 484-sonli xati hamda unga doir rasmiy hujjatlar asos bo‘lib xizmat qilgan. Qarorda ko‘ra, tuman ichki ishlar bo‘limi (G.Mamajonov)ga “Yorqishloq” qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) uchun muhr va tamg‘a tayyorlashga ruxsat berish vazifasi yuklatilgan [8]. Arxivlarda saqlanayotgan mazkur turdagi huquqiy rasmiylashtirish jarayonlarini aks ettiruvchi hujjatlar agrar islohotlarning joylarda amaliy tatbiq etilish jarayonini yoritib beradi. Ular orqali qishloq xo‘jaligida yangi mulkchilik munosabatlari va boshqaruv tizimining shakllanish jarayoni qanday kechgani haqida muhim tarixiy tasavvur hosil qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktyabrdagi “2004–2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirsh konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 476-sonli hamda 2004-yil 24-dekabrdagi “2005–2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 607-sonli qarorlariga muvofiq, “O‘zbekiston” shirkat xo‘jaligining 2005-yil 10-noyabrdagi 1-sonli umumiy yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Andijon tuman hokimligining 2005-yil 14-noyabrdagi “O‘zbekiston” shirkat xo‘jaligi negizida fermer xo‘jaliklari tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-k qarori bilan shirkat xo‘jaligini fermer xo‘jaliklariga aylantirish haqidagi taklif ma’qullandi. Qarorga ko‘ra, “O‘zbekiston” shirkat xo‘jaligi negizida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish maqsadida 25 nafar a’zodan iborat qayta tashkil etish komissiyasi tuzildi. Shuningdek, xo‘jalikni paxta xomashyosi yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklariga aylantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish vazifasi tumandagi tegishli tashkilot va muassasalar rahbarlari zimmasiga yuklatildi. Mazkur qaror agrar islohotlarning navbatdagi bosqichi sifatida shirkat xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich fermer xo‘jaliklariga aylantirish hamda qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Jumladan, qarorda “Andijon tongi” gazetasi muharriri A.Nazarovga “O‘zbekiston” shirkat xo‘jaligini fermer xo‘jaliklariga aylantirish bilan bog‘liq barcha jarayon va tadbirlarni gazeta sahifalarida muntazam yoritib borish vazifasi yuklatilgan. Mazkur topshiriq ijrosi Andijon tumani hokimining birinchi o‘rinbosari T.Ergashev nazoratiga olingan [9]. Ushbu transformatsiya qishloq xo‘jaligida boshqaruvning markazlashgan tizimidan mustaqil fermer xo‘jaliklari faoliyatiga o‘tkazib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Andijon tumani hokimi (X.N.Hakimov)ning 1998-yil 28-dekabrdagi “G.Toshmatov nomli jamoa xo‘jaligi o‘ramida faoliyat yuritayotgan “Bobodehqon Jo‘raboy” dehqon (fermer) xo‘jaligini paxtachilik va g‘allachilik yo‘nalishidagi “Bobodehqon Jo‘raboy” fermer xo‘jaligi sifatida Nizomini qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda ijara shartnomasi asosida yer ajratish to‘g‘risida”gi 537-K-son qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 15-iyuldagi 300-son qarori, Andijon viloyati hokimining 1998-yil 1-avgustdagi 178-son qarori hamda Andijon tumani hokimining 1998-yil 21-sentabrdagi 375-son qarorlari asosida qabul qilingan. Qarorni qabul qilishda dehqon (fermer) xo‘jaliklari rahbarlari attestatsiyasi yakunlari, shuningdek, Andijon tumani G.Toshmatov nomli jamoa xo‘jaligi vakillarining 1998-yil 11-oktyabrdagi 3-sonli yig‘ilishi qarori ham inobatga olingan. Ushbu hujjat agrar islohotlar jarayonida dehqon xo‘jaliklarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish, ularning huquqiy maqomini mustahkamlash hamda yer munosabatlarini ijara asosida tartibga solish mexanizmlarini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Mazkur qarorda Orol qishloq fuqarolar yig‘ini G.Toshmatov nomli jamoa xo‘jaligi o‘ramida faoliyat yuritayotgan “Bobodehqon Jo‘raboy” dehqon (fermer) xo‘jaligiga qo‘shimcha 4.0 gektar ekin yeri ajratilib, paxtachilik va g‘allachilik yo‘nalishidagi “Bobodehqon Jo‘raboy” fermer xo‘jaligi sifatida qayta davlat ro‘yxatiga olish topshirildi va Nizomi tasdiqlandi. Qarorda “Bobodehqon Jo‘raboy” fermer xo‘jaligi sobiq “Bobodehqon Jo‘raboy” fermer xo‘jaligining vorisi hisoblanishi va uning barcha majburiyatlari uchun hujjatlarga muvofiq javobgar ekanligi belgilandi. “Bobodehqon Jo‘raboy” fermer xo‘jaligi G.Toshmatov nomli jamoa xo‘jaligi hududidan ijara shartnomasi asosida 15 (o‘n besh) yil muddatga jami 10.0 gektar haydaladigan yer ajratildi [10]. Bu kabi o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligida fermer xo‘jaliklari institutining shakllanish va rivojlanish jarayonini jadallashtirdi. Shuningdek, ular yer hamda ishlab chiqarish resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, xo‘jaliklarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish va agrar sohada barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

“Baliqchi tuman hokimi (O.Abduraimov)ning 1997-yil 11-noyabrda қабул қилинган qarori bilan O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi hamda “Yer to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq ravishda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni yanada rivojlantirish maqsadida tumandagi “Paxtakor” jamoa xo‘jaligi hududida tashkil etilgan “Bekzod” nomli paxta xomashyosi yetishtirishga ixtisoslashgan dehqon (fermer) xo‘jaligining Nizomi davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Mazkur qarorga muvofiq, Paxtabankning Chinobod bo‘limiga “Bekzod” dehqon (fermer) xo‘jaligi uchun hisob raqami ochish vazifasi yuklatildi. Shuningdek, Olimbek qishloq fuqarolar yig‘ini raisining 1997-yil 25-avgustdagi 14-sonli qarori hamda “Paxtakor” jamoa xo‘jaligi a’zolarining 1997-yil 12-iyuldagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan “Bekzod” dehqon (fermer) xo‘jaligiga jamoa xo‘jaligi hududidan 8 gektar yer maydonini paxta va bug‘doy ekinlari yetishtirish uchun ijara asosida ajratish to‘g‘risidagi qarorlar tasdiqlandi. Shuningdek, mazkur qaror bilan “Paxtakor” jamoa xo‘jaligi hamda “Bekzod” dehqon (fermer) xo‘jaligi o‘rtasida paxta va bug‘doy mahsulotlari yetishtirish yuzasidan 1998–2007-yillarga mo‘ljallab tuzilgan shartnoma ham tasdiqlandi. Ushbu shartnoma tomonlarning ishlab chiqarish majburiyatlari, yer va moddiy resurslardan foydalanish tartibi hamda yetishtirilgan mahsulotni topshirish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qilgan [11]. Hujjatda tavsiflanayotgan jarayon qishloq xo‘jaligida davlatga qaram jamoa xo‘jaliklari tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan fermer xo‘jaliklari modeliga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni boshlanganini ko‘rsatadi. Ayni paytda yer maydonlarining uzoq muddatli ijara asosida ajratilishi va shartnomaviy munosabatlar ko‘lamining kengayishi fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda agrar sohada barqaror xo‘jalik yuritish tizimini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Arxiv hujjatlari Asaka tumanida agrar islohotlarni chuqurlashtirish, zarar ko‘rib ishlayotgan davlat xo‘jaliklarini tugatish hamda ularning o‘rnida jamoa va bozor munosabatlariga mos yangi xo‘jalik shakllarini tashkil etish jarayonlarini izchil tarzda yoritadi. Tuman hokimligining 1993-yil 5-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 33-K- sonli qarorida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni rag‘batlantirish, xalq xo‘jaligi va aholining unga bo‘lgan ehtiyojini to‘laroq qondirish, bozor munosabatlarini shakllantirish, xo‘jaliklarning huquqlari va mustaqilligini kengaytirish hamda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash maqsadlari belgilangan. Shu bilan birga, 1993-yilda zarar ko‘rib ishlayotgan va kam rentabelli davlat xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich jamoa hamda davlat tasarrufida bo‘lmagan boshqa xo‘jalik yuritish shakllariga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularni belgilangan hajm va muddatlarda amalga oshirish vazifasi qo‘yilgan.

Qarorga muvofiq, zarar ko‘rib ishlayotgan hamda past rentabelli davlat xo‘jaliklari tugatilib, ularning negizida jamoa xo‘jaliklari va davlat tasarrufida bo‘lmagan boshqa xo‘jalik yuritish shakllari tashkil etilgan. Eng muhim jihati shundaki, asosiy ishlab chiqarish vositalari – texnika, binolar va boshqa moddiy-texnik resurslar mehnat jamoalariga tekinga mulk qilib berilishi belgilangan.

Islohotlarning o‘tkazilishi pirovard natijada xo‘jalik ichki iqtisodiy munosabatlarini tubdan o‘zgartirishi, mulkchilikning jamoa va ijara shakllari negizida sifat jihatdan yangi mustaqil ishlab chiqarish bo‘linmalarining barpo etilishi ta’kidlab o‘tilgan. Qaror xo‘jalik yuritishning ijara, shirkat, fermer, oilaviy va boshqa turlarini vujudga keltirish uchun hamma shart-sharoitlar yaratish, uzoq muddat ajratilgan yerga egalik qilish va foydalanish, mahsulotni mustaqil taqsimlash huquqi berildi. Albatta, bular – dehqonlarga ish faoliyatida mustaqillik, yerga uzoq muddat egalik qilish, eng muhimi – yetishtirilgan mahsulotni sotish huquqi berilgani ishlab chiqaruvchida “mulkdorlik hissi”ni uyg‘otish maqsadiga qaratilgan edi.

Qaror 1993-yil uchun tasdiqlangan 5779 gektar paxta va 1174 gektar kuzgi boshoqli don maydonlari xo‘jaliklar bo‘yicha belgilab yetkazish vazifasini topshirdi. Shunindek, unda xo‘jalik jamoalarining paxta yetishtirishni ko‘paytirishdan manfaatdorligini oshirish va ularning mahsulot sotishda iqtisodiy mustaqilligini kengaytirish uchun paxta xomashyosi tayyorlash davlat buyurtmasi 80,0 foiz hajmida belgilash ko‘rsatildi. Bunda xo‘jaliklarga davlat buyurtmasidan ortiqcha (ya’ni belgilangan reja-topshiriqning 20 foizi va topshiriqdan ortiqcha hajmning hammasi) paxta xomashyosidan olingan paxta tolasi mahsulotini erkin bozor narxlarida sotish orqali qo‘shimcha daromad olish imkonini bergan [12].

Ushbu islohotlar qishloq xo‘jaligida mulkchilik va boshqaruv tizimini yangilash orqali manfaatdorlik asosida ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faolligini kuchaytirgan bo‘lsa-da, davlat buyurtmasining saqlanib qolishi bozor munosabatlariga o‘tish jarayonining hanuz to‘liq bo‘lmaganini ham ko‘rsatadi.

Arxiv materiallari paxta yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatida ishlab chiqarish, moliyaviy, marketing hamda inson omili bilan bog‘liq qator muammolar hanuz mavjud bo‘lganini ham ko‘rsatadi. Jumladan, paxtachilikka asoslangan fermer xo‘jaliklari faoliyatida ishlab chiqarish, marketing,

moliyaviy, institutsional va personal (inson omili) ta'sirining yuqoriligi resurslardan samarasiz foydalanish, iqtisodiy yo'qotishlar, belgilangan hajmdagi daromadni to'liq ololmaslik yoki ayrim hollarda zarar ko'rish kabi muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lganligi qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Agrar sohada eng katta muammo – fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida yetarli bilimga ega emasligidir. To'g'ri, ularda kuch-g'ayrat, tashabbus, yerga mehr bor, ko'pchilikning ko'zi yonib turibdi. Lekin, afsuski, birgina xohish bilan biz yuqori hosildorlikka va pirovard natijaga erisha olmaymiz. Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur" [13] – deb ta'kidlaydi.

Mazkur holat agrar islohotlarning muvaffaqiyati nafaqat tashkiliy-huquqiy o'zgarishlarga, balki inson kapitalining rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shu sababli fermerlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish agrar sohada barqaror rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

"Andijon viloyat hokimligi huzuridagi istiqbolni belgilash va statistika qo'mitasining 1993-yil 12-yanvardagi 01/16-sonli ma'lumotiga ko'ra, 1992-yilda paxta tolasi xarid qilishning umumiy hajmi Respublika hukumati qarori bilan 117 ming tonna etib belgilangan. Biroq hokimiyat rahbarlari mas'uliyatni o'z zimmalariga olib, yem-xashak ekin maydonlarini kengaytirish hamda sabzavot mahsulotlarini ko'paytirish maqsadida paxta tolasi hajmini 112 ming tonna etib belgilash taklifini bildirganlar. Bu ko'rsatkich 1991-yilga nisbatan 5 ming tonna kam bo'lib, ayrim nohiya va xo'jalik rahbarlari esa masalaga faqat joriy yil rejalari nuqtayi nazaridan yondashganlar. Yildan yilga paxta hosildorligini kamaytirish hisobiga hisobiga paxta maydonlarining kengaytirilishi yem-xashak ekinlari maydonining qisqarishiga va almashlab ekish tizimining izdan chiqishiga olib kelganligi qayd etiladi. Paxta tolasi hajmini qisqartirishdan ko'zlangan asosiy maqsad, birinchidan, aholiga tomorqa yer berilsa, ikkinchidan almashlab ekishni yo'lga qo'yish natijasida paxta hosildorligini ko'paytirish, yem-xashak maydonini kengaytirish edi" [14]. Bu jarayon agrar siyosatda biryoqlama paxtachilikdan voz kechib, ko'p tarmoqli va barqaror qishloq xo'jaligini shakllantirishga o'tish boshlanganini anglatadi.

"Marhamat tumanida shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish komissiyasining tuman hokimi K.Madrahimov raisligida 2006-yil 24-martda o'tkazgan yig'ilish bayonnomasida fermer xo'jaliklariga aylantirilayotgan M.Tojiboyev, T.Mirzayev, U.Qoraboyev nomli hamda "Istiqlol" shirkat xo'jaliklarini tugatish jarayoni yakuni bo'yicha o'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra 131 ta fermer xo'jaligi tender g'olibi deb topilganligi, shuningdek, shirkat xo'jaliklaridagi barcha mol-mulklar xatlovdan o'tkazilib baholandi va ausion savdoga chiqarilganligi bayon etildi. Bundan ko'rinib turibdiki, qonunchilikka muvofiq, shirkat xo'jaliklariga erkin faoliyat yuritish huquqi berildi, arxiv manbalari asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish va yer unumdorligini muhofaza qilish masalalari har doim davlat siyosatining diqqat markazida bo'lganligidan dalolat beradi" [15]. Bu o'zgarishlar qishloq xo'jaligida mulkchilik munosabatlarini yangilab, yer va resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, ularning real samaradorligi tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining boshqaruv darajasi va bozor sharoitlariga moslashuviga bog'liq bo'lgan.

Yuqorida qayd etilgan qarorlar muayyan shirkat va dehqon (fermer) xo'jaliklari misolida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, ular yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish va agrar soha vakillari daromadini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Mazkur huquqiy hujjatlar bugungi kundagi klaster tizimi va zamonaviy fermerlik harakatining o'tmishdagi huquqiy asosi (poydevori) bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot doirasida respublika yer maydonining bor-yo'g'i bir foizini egallagan, biroq aholisining qariyb 10 foizi istiqomat qiladigan Andijon viloyatining paxtachilik salohiyati tahlil qilindi.

"Viloyat paxtachilik tarixiga nazar tashlasak, 2001-yilda xomashyo asosan shirkat va fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu vazifa to'liq paxta-to'qimachilik klasterlari va zamonaviy fermer xo'jaliklari zimmasiga o'tdi.

Viloyatdagi o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichlari respublika miqyosida qiyoslanganda quyidagi manzara namoyon bo'ladi:

- respublika bo'yicha o'rtacha: 20,0–25,0 sentner;
- ayrim viloyatlarda: 12,0–15,0 sentner;
- Andijon viloyatida (2022-yil): 37,0 sentner.

Shuningdek, viloyat paxtachiligida rentabellik darajasi 2016-yildagi 9,5 foizdan 2022-yilda 10,1 foizgacha o'sganligini kuzatishimiz mumkin.

Biroq erishilgan natijalar mavjud imkoniyatlar darajasida emasligi sohada hali o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar borligidan dalolat beradi. Xususan, moddiy-texnika resurslari narxlarining jadal sur'atlarda o'sib borishi so'nggi o'n yillikda tarmoq iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning rentabelligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda" [16. B. 424]. Bu jarayon agrar sohada institutsional islohotlar natijasida ishlab chiqarish samaradorligi oshganini ko'rsatsa-da, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xarajatlar va

resurslar muvozanatini optimallashtirish dolzarb masala bo‘lib qolayotganini anglatadi.

Tahlil qilingan manbalar shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyati qishloq xo‘jaligida mustaqillik yillarida chuqur institutsional va tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Xususan, jamoa va shirkat xo‘jaliklaridan fermer xo‘jaliklari hamda keyinchalik klaster tizimiga o‘tilishi agrar sohada bozor munosabatlarining izchil shakllanganini anglatadi. Bu jarayon yer va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish hamda iqtisodiy natijadorlikni yaxshilashga xizmat qildi.

XULOSA

Andijon viloyatida paxtachilik qadimdan aholi turmushi va iqtisodiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligini isloh qilish jarayonida paxtachilik tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu islohotlar natijasida viloyatda turli mulkchilik shakllariga asoslangan shirkat, dehqon (fermer) xo‘jaliklari tashkil etilib, ular bozor munosabatlari sharoitida teng huquqli faoliyat yurita boshladi.

Natijada paxtachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshibgina qolmay, balki mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratildi, qishloq joylarda bandlik va iqtisodiy barqarorlik ta’minlandi.

O‘rganish va tadqiqot tahlillaridan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflar tavsiya etiladi.

- Viloyatda paxtachilik azaldan aholi turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lgan. Mustaqillik yillarida esa ushbu tarmoq ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan erkin xo‘jalik yuritish shakliga muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Shirkat va fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi qishloqda haqiqiy mulkdorlar qatlamini shakllantirdi, bu esa o‘z navbatida yerga bo‘lgan munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirdi:

- islohotlar natijasida nafaqat hosildorlik oshdi, balki qishloq joylarida minglab yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholi bandligi ta’minlandi.

- paxtachilikda fermer xo‘jaliklari faoliyatini takomillashtirishda tarixiy tajribani hisobga olgan holda, zamonaviy raqamli texnologiyalar va tomchilatib sug‘orish tizimlarini kengroq joriy etish.

- yerlarning hosildorligini saqlab qolish uchun irrigatsiya tarmoqlarini doimiy modernizatsiya qilish va meliorativ tadbirlarni davlat-xususiy sheriklik asosida kuchaytirish.

- arxiv manbalaridagi muvaffaqiyatli xo‘jalik yuritish Nizomlarini o‘rganib, ularni bugungi klaster tizimida qo‘llash va fermerlarning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlash.

Andijon viloyati paxtachiligiga ixtisoslashgan shirkat hamda dehqon (fermer) xo‘jaliklari Nizomlarini arxiv manbalari asosida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish va yer unumdorligini muhofaza qilish masalalari doimo davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan.

Adabiyotlar:

1. *Negmatova S.T., Xalikov B.M.* O‘rta tolali g‘o‘za navlarini parvarishlashda paxta hosiliga agrotexnik tadbirlarning ta’siri. // “Paxtachilikka ilmiy-innovatsion yondashuv: nazariy tamoyillar va amaliy yechimlar” mavzusidagi xalqaro Paxta kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan Ilmiy konferensiya ishtirokchilari ma’ruzalarining tezislari to‘plami. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023. – B. 10–12.

2. Prezidentimizning qishloq xo‘jaligi xodimlari bilan bo‘lgan muloqoti. 2025-yil 10-dekabr. [Elektron manba]. URL: https://yuz.uz/oz/news/prezidentimiz-qishloq-xojaligi-xodimlari-bilan-muloqot qildi. html (Murojaat etilgan sana: 14.12.2025)

3. *Mirziyoyev Sh.* Qishloq xo‘jaligidagi ishlar natijadorligi muhokama qilindi. 24/03/2018. [Elektron manba]. URL: https://www.uzdaily.uz/uzc/qishloq-xo‘jaligidagi-ishlar-natijadorligi-muhokama-qilindi/ html (Murojaat etilgan sana: 16.12.2025)

4. *Rahmonov S.* Paxta maydonlari 215 ming gektar qisqartirildi. [Elektron manba]. URL: https://agro-olam.uz/paxta-maydonlari-215-ming-gektar-qisqartirildi-nega/ html (Murojaat etilgan sana: 18.12.2025)

5. Andijon viloyat davlat arxivi (AVDA). 716-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘majild, 14,18-varaq.

6. *Choriyev Q.* Jamoa xo‘jaligi. https://qomus.info/encyclopedia /cat-j/ jamoa-xojaligi-uz/ 23.06.2024. (Murojaat etilgan sana: 10.12.2025)

7. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi “Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida”gi 600-I-sonli Qonunining 4,14,21-moddalari. [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/30236 (Murojaat etilgan sana: 19.12.2025)

8. AVDA. 744-fond, 1-ro‘yxat, 224- yig‘majild, 260-varaq.
9. AVDA. 724-fond, 1-ro‘yxat, 384- yig‘majild, 180-varaq.
10. AVDA. 724-fond, 1-ro‘yxat, 232- yig‘majild, 38-varaq.
11. AVDA. 733-Fond, 1-ro‘yhat, 207-yig‘majild, 63-64-varaqlar.
12. AVDA. 727-Fond, 1-ro‘yhat, 35-yig‘majild, 32-34-varaqlar.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2018-yil 29-dekabr.
14. AVDA. 734-fond, 001-ro‘yxat, 0071- yig‘majild, 6-varaq.
15. AVDA. 740-fond, 001-ro‘yxat, 495- yig‘majild, 180-181-varaqlar.
16. *Shermatov O.A.* Raxtachilik iqtisodiy samaradorligini oshirishning iqtisodiy asoslari // Ekonomika i sosium. – 2023. – №11(113). – B. 423–427.

THE ROLE OF COOPERATIVES AND DEHKAN (FARMER) FARMS IN THE DEVELOPMENT OF COTTON FARMING IN UZBEKISTAN

(on the example of Andijan region)

Abduvoxid A. Alisherov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. 2026. 1(93). 67-75.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_ info@edu.uz

Key words: *cotton growing, archival sources, cooperative, farmer, shirkat, reform, land lease, productivity, contract, agriculture.*

The article is analyzed the Charter of cooperative and dehkan (farmer) farms in cotton growing in the Andijan region based on archival sources. Also, showing that the transformation of collective farms into cooperative farms is the creation of a class of owners based on property shares and family contracts, the results obtained serve as the basis for drawing scientific and practical conclusions on the factors of more effective organization of the activities of cooperative, dehkan (farmer) farms in cotton growing and increasing its effectiveness.

In general, the analysis of the results of the presence in archival sources of the Regulations of cooperative, dehkan (farmer) farms specializing in cotton growing in the Andijan region shows that the issues of efficient use of agricultural land, preservation and increase of its fertility are becoming relevant in a timely manner.

During the years of independence, special attention was paid to the development of the cotton industry. From the first years of independence, large-scale measures aimed at reforming this sphere have been implemented. As a result, the economic, financial, and legal conditions for managing and organizing production in cotton growing have fundamentally changed. As in the entire republic, cotton-growing farms based on cotton growing in the Andijan region have the opportunity to operate on equal terms in a competitive environment.

The transformation of collective farms into cooperative farms is based on property shares and family contracts, with the goal of creating a class of owners in rural areas, restoring and protecting their property rights, and developing a form of management that meets the requirements and methods of a market economy.

Analysis of archival documents shows that at the end of the 1990s, a special certification system was introduced to determine the qualifications of heads of dehkan and farmer households. This process ensured that not random people, but true experts in the field came to farming.

Studying the provisions of successful economic management in archival sources shows that they can be applied in today's cluster system and further strengthen the legal protection of farmers.

Analysis of archival documents shows that the reforms of the late 1990s served as an important bridge in the transition of agriculture from social management to economic management. Cooperative farms and the first farming movements, as can be seen in the example of the Andijan region, have formed the necessary experience and legal framework for the transition to today's modern cluster system.

Analysis of the Charters of cooperative and dehkan (farmer) farms specializing in cotton growing in the Andijan region, based on archival sources, shows that the issues of the effective use of agricultural land and the protection of land fertility have always been at the center of state policy.

References:

1. Negmatova, S.T., Xalikov, B.M. (2023). O'rta tolali g'o'za navlarini parvarishlashda paxta hosiliga agrotexnik tadbirlarning ta'siri. Paxtachilikka ilmiy-innovatsion yondashuv: nazariy tamoyillar va amaliy yechimlar. [Influyencye of agrotechnical measures on cotton yiyeld when cultivating medium-fiber cotton variyetiyes. Sciyentific and innovative approach to cotton growing: theoretical principles and practical solutions]. Tashkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi". Pp.10-12.

2. (2025) Prezidentimizning qishloq xo'jaligi xodimlari bilan bo'lgan muloqoti. [Dialoguye of the President of our country with agricultural workers]. [Online]. URL: https://yuz.uz/oz/news/prezidentimiz-qishloq-xojaligi-xodimlari-bilan-muloqot-qildi.html (Date of Access: 14.02.2025)

3. Mirziyoyev, Sh. (2018). Qishloq xo'jaligidagi ishlar natijadorligi muhokama qilindi. [The effectiveness of agricultural work was discussed]. [Online]. URL: https://www.uzdaily.uz/uzc/qishloq-xo'jaligidagi-ishlar-natijadorligi-muhokama-qilindi/ html (Date of Access: 16.12.2025).

4. Rahmonov, S. (2018). Paxta maydonlari 215 ming gektar qisqartirildi. [215 thousand hectares of cotton fiyelds wyere reducyed]. [Online]. URL: https://agro-olam.uz/paxta-maydonlari-215-ming-gektar-qisqartirildi-nega/ html (Date of Access: 18.12.2025).

5. Andijon viloyat davlat arxivi (AVDA). [Andijan Regional State archive. (ARSA)]. Fund 716, inventory 1, file 11, sheyets 14,18.

6. Choriyev, Q. (2024). Jamoa xo'jaligi. [Collective farm]. [Online]. URL: https://qomus.info/encyclopedia / cat-j/ jamoa-xojaligi-uz html (Date of Access: 10.12.2025).

7. (1998) O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi 600-I-sonli Qonunining 4,14,21-moddalari [Articles 4, 14, 21 of the Law of the Republic of Uzbekistan No. 600-I "On the Agricultural Cooperative (Shirkat)"]. [Online]. URL: https://lex.uz/docs/30236 html (Date of Access: 19.12.2025).

8. ARSA. Fund 744, Inventory 1, File 224, Sheyet 260.

9. ARSA. Fund 724, Inventory 1, File 384, Sheyet 180.

10. ARSA. Fund 724, Inventory 1, File 232, Sheyet 38.

11. ARSA. Fund 733, Inventory 1, File 207, Sheyets 63-64.

12. ARSA. Fund 727, Inventory 1, File 35, Sheyets 32-34.

13. (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan]. *Xalq so'zi*. December 28.

14. ARSA. Fund 734, inventory 001, file 0071, sheyet 6.

15. ARSA. Fund 740, inventory 001, file 495, sheyets 180-181.

16. Shermatov, O.A. (2023). Paxtachilik iqtisodiy samaradorligini oshirishning iqtisodiy asoslari [Economic Basis for Increasing the Economic Efficiyency of Cotton Growing]. *Ekonomika i sotsium*. No 11(113). Pp. 423-427.

Muallif haqida ma'lumot:

ALISHEROV Abduvoxid Alisherovich – Andijon davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: abduvohidaliserov@gmail.com